
Saxovat – xalqimizning ulug’vor qadriyatlaridan biridir

????Bugun yurtimizda olib borilayotgan jarayonlar o’zgacha. Muammolar bartaraf etilmoqda, chetda qolib, yolg’izlikdan qiynalayotganlarga mehr-muruvvat, saxovat qo’llari uzatilmoqda. Bemorlarning hol-ahvoli so’ralmoqda. Hech kim e’tibordan chetda emasligi amaliy ko’rsatib berilmoqda.

Yurtimizdagi har bir mahalla va qishloqlarda yashovchi yolg’iz keksalar, nogironlar, boquvchisini yo’qotganla hamda kam ta’minlangan oilalar holidan xabar olinmoqda.

O’zaro mehr-oqibat, saxovat va muruvvat ko’rsatish, tabarruk keksalarning duosini olish, nogironligi bo’lgan fuqarolarga, yordamga muhtojlar xolidan xabar olib, ularga ko’mak berish azaliy qadriyatlarimizdandir.

Bu qadriyatlarimiz “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili”da yangicha mazmun kasb etmoqda.

✍ Xususan, Chuburg’on MFY xodimlari tomonidan yakka yolg’izlar, nogironligi bo’lgan keksalar hamda ehtiyojmand oilalar holidan xabar olinib, ularni kirib kelayotgan yangi 2023 yil bilan tabriklab, oziq-ovqat mahsulotlari hamda xomiylarning sovg’alari topshirildi.

* Nuroniylarimiz tinchlik zamonda yashayotganimizga shukronalar aytishib bunday saxovatli ishlar bardavom bulishini tilab duo qilishdi.

2022-12-23 09:07:20